



IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini birdek qamrab olayotgani e'tiborga molik. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"da islohotlar amalga oshiriluvchi bir qancha yo'nalishlar belgilab olindi va unda ijtimoiy sohaga ham katta e'tibor qaratilayotgani muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy hayotning muhim bo'g'ini, albatta, san'at va madaniyat sohasidir. Muhtaram Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev boshchiligida so'nggi yillarda ushbu sohalarga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

O'ZBEKISTONDA BUTUNROSSIYA DAVLAT KINEMATOGRAFIYA INSTITUTI KUNLARI

Ayniqsa, kino san'atining xalq hayotida hamda inson ma'naviy olamini shakllantirishdagi ahamiyati e'tiborga olinib, ushbu san'at turini jadal rivojlantirish, uning badiiy hamda sanoat tuzilmalarini qayta tashkil etishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2018 yilning 24 iyulida qabul qilingan "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3880-sonli Prezident qarorida kino san'atining jamiyat hayotida tutgan o'rni xususida shunday munosabat bildirilgan: "Mahalliy kino sanoati milliy madaniyat va san'atni rivojlantirishga, yoshlarni sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, kekka avlodga hurmat-ehtirom ko'rsatishga bebaho hissa qo'shmoqda. Kino inson bilimini o'rtirishda muhim rol o'ynaydi, uning boy mazmuni esa aholining bilimdonlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi". Qarorda bejizga kino sanoati nazarda tutilmayapti. Zero, bugungi globallashuv davrida kino nafaqat tomoshabinga badiiy-estetik ozuqa beruvchi san'at turi, shu bilan bir qatorda, kino bugun butun dunyoda xalqlarning milliy qiyofasini namoyish etuvchi, mafkura tarqatuvchi hamda yirik daromad topish manbai sifatida qaralmoqda. Bugun mafkura poligonlari yadro poligonlaridan-da ko'proq xavf tug'dirayotgan bir paytda sog'lom jamiyat qurishni o'z oldiga ustuvor maqsad sifatida belgilagan har bir mamlakat kinoning mana shu g'oyaviy targ'ibotchilik hamda sanoat xususiyatlaridan ham unumli foydalanishlari zarur bo'lib qoladi. Buni yaxshi anglagan Yurtboshimiz dunyoning eng rivojlangan texnologiyalari vositasida olingan filmlar bilan bizning "ibtidoiy" filmlarimiz raqobatlashish, yangilikka o'ch tomoshabinning e'tiborini jalb qilib olishi va o'z ortidan ergashtirishi juda murakkabligini hisobga olgan holda kino sohasini ham san'at, ham sanoat jihatidan parallel rivojlantirish chora-tadbirlarini muhim masala sifatida oldinga surmoqdalar. Bu borada ikki muhim omilni ko'zda tutish hamda ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlash yanada dolzarbdur. Bular jahon talablariga javob bera oladigan kadrlar hamda xorijiy ilg'or tajribalardan foydalanish masalalari hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlangan Qarorda bu masalalar ham ko'zda tutilgan bo'lib, ularni hal qilish bo'yicha bir qancha vazifalar belgilangan:

"2019-2020 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining iqtidorli bitiruvchilarini hamda institutda "Ijro etuvchi produser"

va "Kinorejissura va kinodramaturgiya" yo'nalishlari bo'yicha dastlabki saralashdan o'tgan bakalavr darajasiga ega milliy kinematografiya sohasining mutaxassislarini S.A.Gerasimov nomi dagi Butunrossiya kinematografiya davlat instituti (keyingi o'rinlarda – BKDI) qoshidagi "Kino va televideniye"ning oliy kurslariga o'qishga yuborish;

2019-2020 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bakalavriatining ixtisoslashgan yo'nalishlari iqtidorli bitiruvchilari uchun BKDI assistentura-stajirovkasida "Ijro etuvchi produser", "Dramaturgiya" va "Audiovizual san'at rejissurasi" mutaxassislari bo'yicha o'qishlarni tashkil etish;

2020-2021 o'quv yilidan boshlab Toshkent shahrida kinematografiya sohasining malakali kadrlarini tayyorlash bo'yicha BKDI filialini (qo'shma fakultetini) ochish, o'qituvchilik faoliyatiga BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida avval tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni, shuningdek, master-klasslar o'tkazish uchun institut professor-o'qituvchilarini jalb qilish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin".

Shu kabi belgilangan bir qator vazifalarni bajarish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2018 yilning 2-5 oktabr kunlari "O'zbekistonda Butunrossiya davlat kinematografiya instituti kunlari" tashkil etildi. Tadbiring birinchi kuni mehmonlar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti (O'ZDSMI) rektori, professor I.Yuldashev hamrohligida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri bilan uchrashishdi. Uchrashuvda Prezident qarorida belgilangan ta'lim hamkorligi masalalari bo'yicha muzokaralar bo'lib o'tdi. Shundan so'ng, O'ZDSMI O'quv teatrida "O'zbekistonda Butunrossiya davlat kinematografiya instituti



kunlari"ning ochilish marosimi bo'lib, unda O'ZDSMI rektori filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Djurayevich Yuldashev hamda BKDI (VGIK) rektori san'atshunoslik fanlari doktori, professor Vladimir Sergeyevich Malishevning hamkorlik hamda istiqboldagi ishlari bo'yicha nutqi tinglandi.

Kunning ikkinchi yarmida OAVlar uchun press-konferensiya tashkil etildi. Unda Rossiyadan tashrif buyurgan delegatsiya a'zolari, O'ZDSMI professor-o'qituvchilari hamda OAV xodimlari qatnashadilar. Undan so'ng, rejaga ko'ra, rossiyalik tajribali mutaxassislardan tomonidan o'zbekistonlik talabalar hamda qiziquvchilar uchun master-klasslar bo'lib o'tdi. Ularda, xususan, BKDI "Aktyorlik mahorati" kafedrasida dotsenti A.Z.Zakirov, "Kino" kafedrasida mudiri, RF xalq artisti, rejissyor V.I. Xotinenko, "Animatsiya va multimedia" fakulteti dekani Y.G.Yaremenko, Ilmiy ishlar prorektor, "Ovoz rejissyorligi" kafedrasida mudiri Y. A. Rusinova talabalarda katta qiziqish uyg'otdi. Shundan so'ng, BKDIning taniqli bitiruvchilarining ishlari namoyish etildi. Ushbu namoyishni "Kinoshunoslik" kafedrasida dotsenti T. V. Yakovleva olib bordi.

Tadbirning ikkinchi kuni Rossiya delegatsiyasining O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri bilan uchrashuvidan boshlandi. Unda mehmonlar mamlakatimizda madaniyat sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishdilar hamda o'zaro hamkorlik kelishuvlari amalga oshirildi. Hamkorlik kelishuvlarini amalga oshirish ishlari "O'zbekkino" Milliy agentligi Bosh direktori qabulida davom etdi.

Kunning ikkinchi yarmida esa mutaxassislardan tomonidan master-klasslar davom etdi. Unda BKDI "Kinooperatorlik mahorati" kafedrasida professori, RFda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, RF xalq artisti, RF kinematografiya Ittifoqi kinooperatorlar gildiyasi prezidenti I.S.Klebanov, RFda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, RF xalq artisti, rejissyor va senarist V.P.Fokinlar ishtirok etishdi. Shundan so'ng, BDKIning taniqli bitiruvchilari bilan uchrashuv tashkil etilib, unda taniqli kinoijodkorlar yoshlar bilan o'z tajribalarini o'rtoqlashdi, foydali maslahatlar berishdi. Tadbir so'nggida BDKI hamda O'ZDSMI talabalari hamkorligidagi konsert dasturi namoyish etildi.


Uchinchi kun ikki Oliy o'quv yurti rahbariyati hamda mutaxassislardan tomonidan madaniy-ta'limiy dastur muhokama etildi. Doimiy hamkorlik o'rnatish va uni samarali tashkil etish

bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

Albatta, ushbu tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarimizga butun dunyoga mashhur bo'lgan Butunrossiya kinematografiya davlat institutini yaqindan tanishtirish, ularning yutuqlarini, mahoratli ishlarini o'rganishdan iborat. Shu bilan bir qatorda delegatsiya a'zolariga mamlakatimizda olib borilayotgan ishlarni, xususan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidagi izlanishlari bilan tanishtirildi. Aytish mumkinki, so'nggi yillarda O'ZDSMIning rejissura yo'nalishida tahsil olayotgan ko'plab talabalar Respublika va xorijda sezilarli yutuqlarni qo'lga kiritib kelishmoqda. Xususan, Yo'ldoshev Bobur "Dazmol" nomli qisqa metrajli filmi bilan Qozog'istonning Almaty shahrida o'tkazilgan Xalqaro kino maktablar va talabalarining "Bastau" IV kinofestivalida, Mahmudova Kamola "Jasur" nomli qisqa metrajli filmi bilan Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan "KinoLikbez" xalqaro festivalida, Alloqulova Maftuna "Vafodor" qisqa metrajli badiiy filmi bilan Rossiya, Ukraina va Qozon davlatlarining xalqaro festivallariida ishtirok etgan. Tojikistonda o'tkazilgan "Navsoz" nomli yosh kinoijodkorlar festivalining maxsus diplomini sohibi bo'lgan hamda Qirg'iziston Respublikasi Bishkek shahrida o'tkazilgan "Umid" nomli yosh kinoijodkorlar forumida qisqa metrajli badiiy filmi uchun mukofotlangan. Alijonov Hasan Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan xalqaro "Kinopropa" festivalida "Qalblar" filmi bilan ishtirok etgan, Rossiyaning Moskva shahrida, VGIKda bo'lib o'tgan XXXVI xalqaro qisqa metrajli filmlar festivalida "Mehr" filmi bilan qatnashib, maxsus diplom bilan taqdirlangan. Shuningdek, bir guruh talabalar mamlakatimizda an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Prolog" yosh ijodkorlar festivalida qatnashib sovrinli o'rinlarni egallab kelishmoqda. Taqdirlanganlar sirasiga Xojimatov Dostonning "Qadr", Azizova Muxlisaning "Tinchlik sohili", Xoliqov Shokirning "Bizni tushunishmaydi" filmlarini sanab o'tish mumkin.

Katta maqsadlarni ko'zlab o'tkazilgan "O'zbekistonda Butunrossiya davlat kinematografiya instituti kunlari" tadbiri umid qilamizki, kelgusida hamkorlikning yangi ufiqlarini ochib beradi. Zero, butun insoniyatga birdek qadri bo'lgan umum-bashariy g'oyalar targ'ib etilgan filmlar xalqlar do'stligi va hamkorligi natijasida vujudga keladi.

O'ZDSMI, Tashkiliy qo'mita



Устоз — энг улуг зот! У маърур жараанлайди. Шу биргини сўз замирида олам-олам маъно ва меҳнат мужассам. Ўқитувчи — софдил, камтарин, маънавий бой, ахлоқий пок инсондир. Уларнинг пойларига гўдастлар сочсак, меҳнатлари эътиборга мукофотлар берсак, доимо ҳурматларини адо этиб ардоқласакда барибир камлик қилади. Чунки устозлар бутун қучларини, ақл-идроқларини, билим ва зехнларини, қалб кўрнго сехрларини биз шогирдларига бахшида этган заҳматкаш инсонлардир. Ана шундай ота-она қалб касб эгалари юртимизда ҳамини қадрлаиб келинган ва шундай бўлиб қолади ҳам.

Кунни кеча Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма етти йиллиги муносабати билан фан, таълим, соғлиқни сақлаш, адабиёт, маданият, санъат, маънавият ва маърифат ҳамда ижтимоий соҳалар ходимларидан бир гуруҳини давлатимизнинг юксак ордени ва медаллари билан мукофотлади.

Давлатимизнинг юксак мукофотларига сазовор бўлган, бахтли инсонлар қаторида бизнинг Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтимизнинг энг кўзга кўринган фидойи ўқитувчиларининг борлиги ҳам бизни жуда ҳам қувонтирди ва қалбларимизни қувончу шодликларга тўлдирди.

Жумладан, ўзининг 35 йиллик фаолияти давомида Мукаррама Турғунбоева номдаги “Баҳор” ракс ансамблида, қолаверса, 14 йил давомида институтимизнинг “Аънавий кўшиқ ижрочилиги” кафедрасида фаолият юритган Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти, профессор, хушовоз санъат соҳибни Хайрулла Лутфуллаев “Меҳнат шухрати” ордени, институтимизнинг “Саҳна нутқи” кафедраси ўқитувчиси, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси “Ўзбекистон” телеканали, “Ўзпигинини англа” ток-шоусининг ўткир зехни бошловчиси, театр ва киноларда ажойиб образлар яратган латофатли актриса Нигора Каримбоева “Дўстлик” ордени билан, “Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист”, “Қорақалпоғистон халқ артисти” фахрий унвонлар соҳибни, халқаро “ANTIQUÉ WORLD” Академияси доценти, 2013 йилдан мазкур Академиянинг профессори, айни кунда Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Режиссёрлик ва актёрлик маҳорати”



кафедраси доценти Сарсенбай Балтаниязовлар “Дўстлик” ордени билан мукофотландилар.

Давлат мукофотида лойиқ топилган номлари

юқорида зикр этилган устозларимизнинг

барчаси таҳсину эътиборларга муносиб ин-

сонлар бўлиб, улар нафақат талаба ёшларга

юксак билим беради, балки жонажон Респуб-

ликамиз бўйлаб ўтказилган турли хил кўрик-

танловларни ташкиллаштиришда, ҳар йили

ўтказиладиган умумхалқ байрамларидаги

саҳналаштирилган тадбирлари ва ширали

овозлари билан барчани хушнуд этиб келаётган

халқимизнинг энг суюкли санъат дарғаларидан

ҳисобланадилар.

Уларнинг меҳнат фаолияти ва ҳар бир ижодий чиқишларини, шунингдек, маданият ва санъат соҳасини ривожлантиришдаги беҳисоб хизматларини эътироф этиш учун қанча гапирсак, қанча ёзсакда оз. Бугун улар халқ назарида, эл ардоғида. Улар ёзган илмий мақолалар, методик қўлланмаларнинг санъат ва маданият йўналишидаги олийгоҳ, коллеж ва мусиқа мактабларида оммалашгани талаба ёшлар учун катта бир мактаб бўлди, десам муболаға бўлмайди. Айниқса, уларнинг бўш вақтлари топилди дегунча, миллий маданиятимизни ёшлар онгига синдириш борасида ўтказётган қатор учрашувлари, давра суҳбатлари ва сермулоҳаза мулоқотлари ҳамда учрашув концертлари ёшлар қалбидан кенг ўрин олиб, уларни келажак сари интилишларига йўлчи юлдуз бўлиб хизмат қилмоқда.

Давлат мукофотида сазовор бўлган улуг устозларимизни, қолаверса, меҳри дарё, қалби қайноқ ширинсухан институтимизнинг барча ўқитувчиларини

РАЎБАТ — ИЖОДКОРГА ҚАНОТДИР

Жаҳонда бўлмаса муаллим, агар
Ҳаёт ҳам бўлмасди гўзал бу қадар.

1 октябрь — “Ўқитувчи ва мураббийлар кунини” билан чин қалбимиздан самимий муборакбод этамиз. Маърифатчи устозлар зиммасида келажак буюк давлатнинг қомил, ҳар томонлама баркамол, маънавий ва ахлоқий пок, ватанпарвар, инсонпарвар, меҳнатсевар инсонларни тарбиялашдек юксак вазифа ва шу масъулиятли вазифанинг амалга оширишида Сиз азиз устозларимизга сабот, ирода, соғлиқ-саломатлик тилаган ҳолда қўлимиз кўксимизда минг бор таъзим этамиз.

Муҳаррам БОЗОРОВА,
“Мухбирлар клуби” сардори



Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008-йил 13-октябрдаги 226-сон “Ўзбекистон иқтидорли ёшларини тақдирлаш ва моддий рағбатлантириш то‘ғ‘рисида”ги қарори билан тасдиқланган “Талабалар учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг давлат стипендиялари ва уларни тайинлаш тартиби то‘ғ‘рисида Низоми” ва “Номли давлат стипендиялари ва уларни тайинлаш тартиби то‘ғ‘рисида Низоми” лар асосида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Давлат стипендиялари ҳамда номли (Алишер Навоий, Ислам Каримов) Давлат стипендияларига номзодларни саралаш олиш бо‘йича Ўзбекистон давлат сан‘ат ва маданият институтида самарали ишлар амалга оширилди.

ИҚТИДОРЛИ YОШЛАРГА G‘ALABA MUBORAK!

2017–2018-о‘қув йили давомида институт талабалари орасидан о‘зларининг ижод намуналари, ҳар жабҳада зукко ва пешқадамлиги билан ажralib турадиган фаол талабалар билан белгиланган тартибда тизимли ишлар олиб борилди.

Институтда о‘збек сан‘ати ва маданияти ривожланиши учун муносиб ҳисса қo‘shib келаятган иқтидорли, ҳар қанча фaхрлaнса арзигулик yутуqlарни қo‘lгa кiritayotган талаба-yошларимиз тaлaйгaнa. О‘zларининг тинимсиз меҳнaти, тирishқoқлиги, улкaн умидлар



билан изланишлар олиб бoرایotган институтнинг uch нафар иқтидор соҳиблари

давлатимизнинг yuksak mukofotiga sazovor bo‘lishdi.

Ўзбекистон Республикасининг иқтидорли талабалари учун та‘сис этилган стипендияларга uch нафар талабамиз uch yo‘nalishdagi davlat stipendiyalarining sohibiga aylanishi institut jamoasiga katta quvonch va faxr tuyg‘ularini baxsh etdi. Albatta, institutdagi ijodiy va sog‘lom raqobat muhiti zafarli

Ўзбекистон Республикаси Президенти стипендиясига Кино, телевидение ва радио сан‘ати факультети “Кино, телевидение ва радио режиссёрлиги” та‘лим yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Fotih Nasimov, Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasining bu yilgi sohibasi Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Berdiyeva Sabina hamda Ўзбекистон Республикасининг Birinchi Президенти Ислам Каримов nomidagi stipendiyasiga Xalq ijodiyoti fakulteti “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Rustamaliyeva Shahnoza loyiq deb topildi.

Bugun stipendiantlarning qadamlari chaqmoqdek, ko‘zlaribamislcho‘g‘dek yonib kelajakka ulkan maqsadlarni qo‘yib ildam odimlamoqda. Biz esa, bu yo‘lda ularga chin ko‘ngildan ulkan omad va zafarlar tilaymiz. Zero, unutmang SIZNI KUTAR NURLI MANZILLAR!

Е‘tibor NAZAROVA,
Иқтидорли талабалар билан ишлаш
uslub chisi

Навоийшунос олима, профессор, Ўзбекистон Республикаси Давлат мукофоти лауреати, “Эл-юрт ҳурмати”, “Буюк хизматлари учун” орденлари соҳиби, Ўзбекистон Қаҳрамони Суйима Ғаниева ўзининг ёрқин истеъдоди, илмий ижоди билан қалблардан мангу жой олди.

ИЛМГА БАХШИДА УМР

“Ўзбекино” Миллий агентлиги буюртмаси билан 2014 йил муаллиф Эшқобил Шукр, режиссёр Адҳам Усмонов, оператор Музаффар Юсупов каби ижодкорлар томонидан олиманинг ҳаёти ва ижодига бағишланган “Йўл” номли ҳужжатли фильм суратга олинди. Унда “Умр — бир йўл, илм йўли, йўлда фойда ва барака бор, мен ҳамон шу йўлдаман”, — дея кўнгил ҳиссиётларини ўртоқлашган қаҳрамонимизни кўраемиз. Фильмдаги соатнинг кўриниши ўтаётган умрнинг сурати, таъсирли мусикий безаклари руҳиятнинг эҳтиёжи, поезднинг узун темир йўллари беадоқ илм йўллари қиёс сифатида маҳорат билан тасвирланган. Қаҳрамонимизнинг зиёратга бориши — соф исломий ақида бўлиб, инсоннинг бу дунёда яшаши — бир зиёратга келган йўловчидек ўтишига қиёсланган. Олима фильм марказида кутубхонада сўзлайди. Ушбу кадрларда Суйима Ғаниевнинг ҳаёти китоблар ичида

ўтганлиги, улуг бобомиз Алишер Навоий ижодини дунёга тараннум этишда ўз меҳнатларини аямаганлиги, шу кутубхона унга Ватан, ҳалол ризқ макони, босиб ўтган улкан мозий ҳамда истиқболи порлоқ келажак эканлигига ишора бўлган.

Олима Эрон пойтахти Техрон шаҳрида жойлашган “Кохи Гулистон” музейидан Навоийнинг асарларини юртимизга олиб келди. Шарқ фалсафаси, умр ҳикмати, илоҳий ишқ сирлари жо бўлган Навоий асарларини бир неча тилларга таржима қилиб, чоп эттирди. Буюк адиблар Ғафур Ғуллом, Ойбек, Шайхзода, Миртемирлар қатори Навоий асарларига ўзгача муҳаббат қўйди. Бу муҳаббат ортидан улуг бобомизнинг ўз қўллари билан ёзган дастхатини топишга муваффақ бўлди. “Йўл” фильмида Суйима Ғаниева “Навоий дастхати юртимизга Мустақиллик билан бирга кириб келди. Бунда ўзгача ҳикमत бор”, — дея таъкидлайди. Балки айнан

мана шу дастхатни олиманинг ўзи топанлигида ҳам бир ҳикमत бордир? Ўзбек аёллари орасида Навоий ижодига Суйима Ғаниевадек меҳр-муҳаббат қўйган олима бўлмаса керак!

Олима Ўзбекистон Фанлар академияси Тил ва адабиёт институти илмий котиби, Тошкент давлат консерваториясида кафедра мудири, Тошкент давлат шарқшунослик институти профессори лавозимларида фаолият юритган. Мингта яқин илмий-публицистик мақолалар муаллифи бўлиб, дунёнинг кўплаб мамлакатларида халқаро илмий конференцияларда иштирок этган. Суйима Ғаниева илмий изланишлари давомида яратган “Навоийнинг ҳаёти ва ижоди”, “Алишер Навоий ижодида миллий мафкура”, “Навоий ғазалларида жўмардлик мотивлари”, “Навоий васияти”, “Навоий дастхати” каби асарлари илмий кашфиётлар сифатида эътироф этилган. Унинг илмий кашфиётлари, олтимиш йилдан ортқ фаолияти давомида мунтазам дунё аҳлига ҳавола этилди. Бугун Суйима Ғаниевнинг китобларини ўқиган ҳар қандай инсон маданиятни, улуг маънавиятни, соф маърифат ва муқаддас динни қалбига туяди, умр қадрини англайди. Улуг бобомиз Ҳазрат Алишер Навоий тили билан айтганда, бу дунёда бир йўловчидек



яшаётганлигини ботинан ҳис этади. Бу илмий аёлнинг умри китоблар ичида ўтди, унинг эзгу ғоялари оппоқ қоғозларга муҳрланди.

“Мен Афғонистонда уч марта бўлдим. Ҳар гал борганимда Ҳиротга ўтиб Ҳазрат Алишер Навоийнинг қабрини зиёрат қилишни орзу қилганман, лекин у ердаги нотинчликлар сабаб бу ниятим амалга ошмаган. Бироқ Ҳазрат Навоий қабрини зиёрат қилолмасамда, бир нарсга суюнаман: Алишер Навоийни ўқиш ва англаш ҳам уни зиёрат қилишдир!”, — дейди олима.

Профессор Суйима Ғаниевнинг хотираси қалбимизда мангу яшайди!

Достонбек РАҲМАТУЛЛАЕВ,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти магистранти

Kitobxon taassurotlari

Борис Васильевнинг “Тонглар сокин эди бу ерда” қиссасини ўқиб, ногоҳ мактаб даврларим ёдимга тушди. Шукроналар бўлсинки, биз мустақил юрт фарзандлари тинчлик осойишталик қадрини, унинг қанчалар бебаҳо неъмат эканлигини мана шундай асарлар орқали ҳам англаймиз.

“Тонглар сокин эди бу ерда” асари қаҳрамонлари мен учун қадрдон бўлишга улгурди. Менга тенгдош бўлган бу қизларга ғойибона дўст тутиндим. Улардаги жасораг, мағнага мени дол қолдирди. Ушбу қиссада қизлар тақдир, характери ва ҳар бир ҳагги-ҳаракати ҳаққоний тасвирланганки, китобхон асло зерикмайди, чалғимайди.

Муаллиф қиссага ноодагий ёндашган. Биз қазарма, разъезд ёки бирор бир жанг майдонини кўз олдимизга келтирсак, одагга мард ва жасур ўғлонларни кўраемиз. Борис Васильев айнан қизлар жасоратидан ҳикоя қилибдими, демак бари ўзгача...

171-разъезд... 1942 йил. Уруш ҳали ҳамон давом этар, юртнинг шарқий, ғарбий ҳамда шимолий томонлари немислар томонидан тинмай бомбардимон қилинар, фақат бу ер сокин эди. Солдатларда на масъулият ва на иштиёқ қолганди. Бора-бора ичкилик ва маҳаллий аёллар билан кўнгилхушликлар авж ола борди. Фақат Васковгина улардан холи. У тартиб-интизомга қаттиқ риоя қилувчи, ваганпарвар, ҳақиқий юрт ўғлони. Унинг қайта-қайта шикоятларидан сўнг ичмайдиган, кайфу-сафога берилмайдиганлар юборилди. Роппа роса бир гуруҳ қизлар...

Разъездга фойз ва осойишталик қайтди. Бу шўх ва ҳазилкаш қизлар тинмай кулишар, зағизғондай сайрашарди. Бир-бирларига ҳар ишда ёрдамлашар, қандай қисмат уларни бу ерга етаклаганлигини бирма-бир сўзлашарди. Афсуски, бу осойишталик узоққа чўзилмади. Гўзал қадди-қоматлар ҳарбий кийим остига яширинди. Қалбларга нотинчлик

ва гулгула тушди. Разведкага келган икки немис ортидан изга тушилди. Женья Камелкова, Лиза Бричкина, Галия Четвертак, Рита Осянина, Соня Гуврич ҳамда Федот Эвграфич Васковлар йўлга отландилар. Бу бир қарашда осондек, бор йўғи икки немисга шунча қизлар бас келишолмайдими дерсиз. Воқеалар ривожини янада шиддатли ва ўта таъсирли. Мен қиссани ўқимадим, балки кўз ўнгимда, онгим ва тасаввуримда жонланган ажойиб фильм томоша қилдим десам, муболаға бўлмайди.

“Икки... уч... беш... савказ... ўн... Гуврич пичирлаб санарди. Ўн икки... ўн тўрт, ўн беш, ўн олти... Улар ўн олтига, ўртоқ старшина...” Кўзларда кўркүз ва ваҳима... Уқувсиз беш нафар қизлар, тайини йўқ қуроллар, тақчил озиқ-овқат, бунинг устига жангчилар орасида яраганлар ҳам бор. Аммо бу тўсиқлар уларни заррача кўрқитармиди. Уруш ҳеч кимни алмади. Ҳеч бирларини четлаб ўтмади. Қизлар ҳамда Васков уруш олиб кетган оналари, оталари, фарзандлари, оиласи учун қасос олдилар. Жонларини фидо қилсаларда бир қарич ерни ҳам душманга раво қўрмадилар.

Эссиз Лиза... Ўн тўққиз йил эртанги кун орзуси билан яшади. Билмадим у кимни, нимани кутиб

яшади. Умрини уй ишлари билан ўтказар, касал онасига ғамхўрлик қилар бора-бора ўқишни ташлаб, барчадан узоқлашди. Тез орада бутунлай ёлғиз қолди. У бир умр меҳр, эътибор кутиб яшади. Лиза Ватан олдидаги бурчини аёло даражада адо этди. Бор кучи билан ҳаракат қилди. Аммо ботқоқликка ғарк бўлди.

Бу ваҳимада ким ҳам ўзини йўқотиб қўймайди дейсиз. Фақат Женьягина бунинг уддалади. Ахир, оиласини кўз олдида отиб ташлаган инсон яна нимадан ҳайиқсин. Бир ондаёқ отиб ташлашлари мумкинлигини билсада, бундай шароитда ялангликка чиқиб, бор овози билан куйлаб, хоҳолаш, ўзини бутунлай бефарқдай тутиш осонми сизнингча. Бундан ташқари, Гувричнинг пичоқланиши, Четвертакнинг оёғи лат ейиши, ўзини душманга сотиши, унинг кўрқоқлиги ва продасизлиги бошига етганлиги, Женьянинг илк бор одам ўлдирганидаги ҳолати, Ританинг мардонавор ҳалок бўлиши, Васковнинг эса ўрмондаги аянчли ҳаёти, ҳеч ким қутмаган жасорати менга манзур бўлди. “Тонглар сокин эди бу ерда” қиссаси ҳар бир юрт фарзандини, миллати, элатидан қатъи назар, хоҳ у аёл, хоҳ эркак бўлсин, жон жаҳди билан она тупроғини ҳимоя қилишга ундайди.

Моҳидил ЭСОНБОВЕВА,
“Кино танқиди ва таҳлили”
таълим йўналиши 3-босқич талабаси

ХАБАРНОМА

Ҳурматли китобхонлар!

Институт Ахборот-ресурс маркази 2018 йилнинг июл, август ойларида II номдаги фаннинг турли соҳаларига оид янги ўқув, бадиий ва илмий-амалбон адабиётлар билан таъминланди. Мазкур адабиётлар ҳақидаги тўлиқ маълумотлар ЎЗДСМИ сайтида “АРМ янгиликлари” рукнида эълон қилинган.

Ушбу тақдим этилаётган ўқув, бадиий ва илмий-амалбон адабиётлар Сизларнинг билим ва тафаккурингизни оширишига хизмат қилади.

Hayot insonlar taqdiri yer-osmon... Ikki cheksizlik o'rtasidagi umr...

Men ayollarni huddi osmonga o'xshataman. Er kishini yerga...bardoshi yerdan qattiq. Dard kelsa ichiga yutadi, yig'lamaydi, sabr-matonat... Ularning g'ururi shu darajada bo'ladiki, xatto ovoz, chiqarmaydi.

Ayollar esa chaqmoqday faryod chekadilar. Yomg'ir kabi barini to'kib sochadi. Unutganday bo'ldi-ya, yana yig'layveradi. So'ng quyosh kabi kulib, yana mehrini sochadi. Ajoyib tuyg'u... hayot osmon yer...

Ikki cheksizlik o'rtasidagi umr.

Dilafruz ZOKIROVA,

«Qo'g'irchoq teatr aktyorligi» ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

#Qatra

Monolog

ONA YURTING — OLTIN BESHIGING

O'smirlik chog'larim edi, hayotimning baxtiyor, shodon damlari. Kollejning 3-bosqichida o'qirdim, a'lochi talabalardan edim. Talabalar o'rtasidagi tanlovda g'olib bo'lganim uchun onam, singlim va dadam boshchiligidagi tog' yonbag'ridagi qirlarga aylanishga chiqdik.

Kech tushgach yana o'sha toshloq yo'ldan ortga qaytdik. Ammo... yo'ldan nimadir o'tdi-yu dadam bor jahti bilan rulni chetga burdi, nimagadir qattiq uruldik...

O'zinga kelganimda shifoxonada edim, singlim yonimda hushsiz yotardi. Onam operatsiya xonasida, dadam esa... dadamdan judo bo'lgan edik.

Oilamizda og'ir va musibatli kunlar boshlandi. Onam to'shakka mixlanib qoldi, singlim hali yosh. Barcha ko'rguliklarga o'zimni aybdor sanab, bor mas'uliyatni o'z zimamga oldim. Kollejni tashlab sexda ishlay boshladim. Olgan maoshim dori-darmon va oylik xarajatlarimizga yetmay ancha qiynalardik. Shu orada kollejda sobiq kursdoshim Turkiyada yaxshigina haq evaziga ish borligini, opasi o'sha yerda boy xonadonda xizmatchi bo'lib ishlab, mo'maygina maosh olayotganligini va hozir unga yana bir yordamchi kerak ekanligini aytdi. Men esa yaqin tanishim bo'lganligi uchun uning gaplariga ishonim va opasi bilan birga ishlashga rozi bo'ldim. Pulga muhtojligimiz sabab onamni ham oson ko'ndirdim. Meni Turkiyada kursdoshimning opasi kutib

oladigan bo'ldi, vizalarni ham o'zi jo'natdi. 10 kun ichida xizmatchilik qilib pul ishlash maqsadi da musofirchilikni bo'ynimga oldim.

Ming afsuslar bo'lsinkim, men hayotimdagi eng mudhish xatoga yo'l qo'ygan edim. U yerda meni cheksiz azob-uqubat, johillik va sharmandagarchiliklar qarshi oldi. Bir o'ljadek shahvoniy xirslar orasiga tashlandim, imonim oldida isnodga qoldim va qolgan yarim baxtimdan ham judo bo'ldim. Hayotim jahannam olovida yondi...

Men bu maktubni yozayotganimda hayotimning so'nggi onlaridan alamli nafas olaman. Aslida ham go'yoki bir tirik murdaman. Jonli lekin yashashdan mahrum bo'lgan murda.

Sizlardan oxirgi o'tinchim shuki, ogoh bo'ling. Rizq-nasibangizni musofirchilikdan emas, o'z yurttingizdan axtaring. Men kabi ayanchli botqoqqa botmang!

Feruza TURSUNXO'JAYEVA,
"Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi"
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

SHIRIN ORZULAR

Niyatlar bir dunyo cheksizlik sari,
Ularni ilg'aydi qalbdagi tuyg'ular.
Ro'yobga chiqadi kun kelib bari,
Buncha olisdasiz, shirin orzular.



Ko'zim quvonchida yashaysiz, porlab,
Yuzimda tabassum, qaynoq kulgular.
Har qadamda zimdan kel deya chorlab,
Buncha olisdasiz, shirin orzular.

Ollohim barchani orzuga yetkaz,
Tark etsin qablarni achchiq qayg'ular.
Baxtni ber, omad ber saodat tutqar,
Buncha olisdasiz, shirin orzular.

Doston HAMIDOV,
"Ijtimoiy-madaniy faoliyat"
ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Yoshim 25 da, lekin hayotning qaqshatgich zarbaralariga duch kelaverganim uchunmi meni ko'rgan insonlar 35 yosh berishadi. 17 yoshimda uyimga 26 yoshli yigitdan sovg'i keldi. Men hali turmushga chiqmayman, hali yoshman, o'qiyman deb qanchalik oyoq tirab turmay otam shuncha o'qigani yetadi, qiz bolaga o'qish shart emas, kuyov tomon boy-badavlat o'zlari barchasini muhayyo qilishadi deb turmushga berishdi... To'yim bo'ldi, oradan iyul o'tib farzandli bo'ldik. Qaynotamning qing'ir ishlari oshkor bo'lib, kutilmaganda omad yuz, o'girdi.

YO'LCHIROQ

Bu borada qaynotam kutilmagan ishlarga dosh bera olmay qattiq zarba yedi. Ketma-ket yo'qotishlar bo'ldi. Men uchun oilamiz ustunlari, qaynotam va qaynonamning o'rinlari bilindi. To'satdan turmush o'rtog'imning o'ylab topgan rejasi meni va ota-onamni hayron qoldirdi. Buni aytish qanchalik qiyin bo'lmasin menga berilgan qalin pulini so'rab oldi. Bu yaqinlarimni hayratga soldi. Bir amallab shaharning bir chekkasidan tashlandiq, xarobaga o'xshagan uy topib farzandimiz va meni o'sha uya tashlab, ishlagani ketyapman deb, otamdan olgan puldan atigi 700 ming so'mni bizga berib qolganini esa o'zi olib ketdi.

Qish oylari edi, juda sovuq, yoshim endigina 19 da. Qo'limda esa bir yoshli o'g'lim. Oradan bir oy o'tib turmush o'rtog'im to'lib-toshib kirib keldi. Ularni ko'rib juda sevindim. Xudoga shukur, endi yana baxtli bo'lib yashaymiz deb xursandligimdan o'zinga sig'masdim. Shuncha vaqt qayerda ishladingiz deb so'rasam Moskvada og'aynim bilan biznes boshladik, ishimiz yurishdi, mana qaytib keldim, shukur mashina oldi, senga tilla zanjirlar oldim deb ta'na qilib maqtanardi. Yana borib bir ishlab kelsak xotin uy ham olamiz. Keyin men, sen va o'g'limiz birga o'z uyimizda mazza qilib yashaymiz dedi.

O'glimizni onamga qoldirib Moskva-ga keldik. Biz 3 kun mehmonxonada yashadik. 4-kuni ijaraga uy oldik. Yur endi uyimizda yashaymiz deb olib ketdi. Uy ichkarisi juda chiroyli edi. Yuklarimni joylab bo'lgandim, eshik taqilladi. Eshikni ochdim, bir barzangi rus erkak menga ola qarab bir nimalar der edi. Rus tilini bilmaganim uchun uni tushunmadim. Eshikni o'zimcha yopdim deb uy ichiga otilib yugurdim. Turmush o'rtog'imni bor ovozdaki baqirib chaqirdim. U oshxonadan xotirjam hech narsa bo'lmagandek chiqib kelib endi bu seni ishing dedi. Tushunmadimda "nima" dedim. "Bu sening ishing" dedi, qo'lidagi pichoq bilan o'qalib. Ko'zinga hamma joy qorong'u bo'lib hushimdan ketdim. O'zinga kelgach, xo'rlogim kelib yig'lab tashqariga chiqib ketdim. Qo'rqqanimdan shunchalik yuguribman, oldimdan juda katta dengiz chiqdi, o'zimni cho'ktiraman, deb dengizga otmoqchi bo'ldim. Shunda birdan ko'z oldimga o'g'lim Ibrohimning kulib turgan ko'zlari keldi. Xuddi kulib oyijon deganday bo'ldi. Suvga yaqinlashganim sari go'yo yig'lardi. Uni bu hayotga yolg'iz tashlab ketishga ko'zim qiymadi. Ustim yupun, qornim och, ko'cha juda qattiq sovuq. Shu alfozda 3 kun ko'chada tinimsiz najot izlab yurdim. Umidimni

BUYUKLARNING BUYUGI
USTOZ EMASMI, AYTING?!

Yuragingiz qaridan ziyo bergan, nur bergan,
Ilm koshonasidan ongimizga dur bergan.
Halovatini yo'qotib, jon rohatini yo'qotib,
Million-million dillarga quvonchu-huzur bergan.
Men dahoman, men zo'rman degan gaplardan qayting,
Buyuklarning buyugi ustoz emasmi ayting?!

Bilsangiz harf o'rgatish ming yillik zahmatga teng,
Yo'qdan bor qilgan ishi beqiyos himmatga teng.
Unga kerakmas oltin, unga kerakmas zarlar,
Shogirdlarin kamoli umrbod rahmatga teng.
Bu ko'ngildan chiqqan so'z, demang yolg'ondir bayting,
Buyuklarning buyugi ustoz emasmi ayting?!

Doston JUMAYEV,
"Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi"
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

uzib holsiz yiqilgan paytimda:

— Singlim, o'zbekmisi, nima bo'ldi? — degan ovoz eshildi. Xursandligimdan "ha-ha o'zbekman", deb hognrab yig'lab yubordim. Keyin meni turg'izib qandaydir idoraga olib keldi.

— Singlim endi xavotir olmang, yurtimizga qaytasiz, — dedi.

Ovozi shunchalar yoqimli edi-ki xuddi ona allasidek. Keyin ona vatanimga qaytdim. Qaytishim bilan tog'ri shifoxonaga olib borishdi. Oyoqlarim sovuqdan ko'karib shishib ketgan, o'pkam shamollagan va yana anchagina qo'rqinchli tashxislar bilan shifoxonada bir yilcha hukumatimiz tomonidan davolandim. Eng muhimi farzandimni yana bag'ringa bosdim. O'qidim, ishlayapman. 24-yoshimgacha qo'rquv iskanjasida yashadim, go'yo hozir eshik ochiladiyu erim meni yana olib ketib qoladi. Turmush o'rtog'imni qamoqqa olishganini eshitib ko'nglim ancha tinchlandi. Hozirda farzandimning kamoli uchun yashayapman. Lekin jamiyat oldida yuzim yerga qaragan.

Bizning, jamiki insoniyatning yo'ldi yulduzlari, zamaqshar quyoshi ustozlarimizdir. Ular go'yoki ilm-u ma'rifat quyoshi. Doimo bizga ilm nurlarini tarqatishga o'z taftini doimo sohib ma'rifatli qilishga harakat qiladilar. Ularni buloq suvlariga ham tenglash mumkin. Negaki ular har on bizning, yosh avlodning ertangi to'kin hayoti uchun tinimsiz jilg'alanib bilim ulashishdan to'xtashmaydi. Hattoki bizdagi nomaqbul, xislatlarimiz, illatlarimizni yo'qotmaslik uchun o'zimizdan ko'proq qayg'uradigan zotlar ham murabbiylardir. Ustoz otandek ulug' deb bejiz aytilmagan. Bizning ilk ustozlarimiz ham ota-onalarimizdir.

Quyoshday nur sochar munis ko'zlari,
Tarbiya ta'limdir aytar so'zlari.
Biz uchun muqaddas ota singari,
Ustoz ko'hna dunyoning xokisorlari.

Shahnoza MAHAMMATOVA,
"Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi" ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay'ati:
Go'zal XOLIQULOVA
Hamdam ISMOILOV
Avtorino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Mas'ul kotib:
Xursida PAYZULLAYEVA

Muxbirlar klubi sardorlari:
Muharram BOZOROVA
Shaykat DO'STUMHAMMAD

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo
Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.

www.dsmi.uz, dsmi_info@elam.uz

Gazeta har o'nyin oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz-1.

Sahifalovchi:
Dilmurod DO'STBEKOV

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.
O'lchami — A3, hajmi 2 bosma tabaq.
Nusxasi — 1250 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 8.10.2018 yilda topshirildi.